

## BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOGNITIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING AKMEOLOGIK TEXNOLOGIYASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10341449>

**Maxmudova Dilnoza Xaytmirzayevna**

*Namdu tayanch doktoranti*

### **Annotatsiya**

*Ushbu maqolada kompetentlik, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilimlarini kognitiv faollik asosida o'zlashtirish kompetensiyalari va ularning o'rni, shakllantirishning ayrim masalalari, ahamiyati ochib berilgan. Akmeologik yondashuvlar o'qituvchi kasbiy mahoratini rivojlantirishda yuqori natija beradi agarda: akmeologik rivojlanish usullari muammosining o'rganilganlik darajasi tahlil etilsa; bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy moslashtirishning pedagogik-psixologik jihatlari o'rganilsa; bo'lajak o'qituvchilarni akmeologik rivojlanishi samaradorligini ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlar aniqlansa; tizimli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy moslashtirish modeli ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq etish.*

### **Kalit so'zlar**

*kognitiv faoliyat, intellektual, motiv, kasbiy bilimlar, qobiliyat, dasturiy ta'lim, loyihalash, reflektiv, modellashtirish.*

### **KIRISH**

Har qanday sohada yoki kasbda shaxs o'z potensialini rivojlantirishi jamiyatda va undagi turli tuman vaziyatlarda o'z o'rniga ega bo'lishi muhim sanaladi. Shaxs nazariyasida pedagogika va psixologiya tarmoqlarida shaxsning o'ziga hos kasbiy malakalari shakllanishiga doir qarashlar mavjud. Xalqaro miqyosda bo'lajak mutaxassislarni innovatsion tayyorlash, zamonaviy ta'limni amalga oshirish bo'yicha dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarda bo'lajak pedagoglarning kasbiy mahorati mezonlari, innovatsion ta'lim muhitini yaratish muammolari xalqaro ta'lim standartlari talablarining joriy qilinishiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bunda yosh o'qituvchilarning pedagogik kompetentligi tarkibini zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli qo'llashning motivatsion, kognitiv, operatsion, reflektiv va o'z-o'zini baholash kabi indikatorlari asosida kengaytirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar muhim o'rin tutadi.

Mamlakatimizda ilg'or xorijiy tajribalar asosida uzluksiz ta'lim tizimi uchun bo'lajak yosh o'qituvchilarni tayyorlashning zamonaviy ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, talabalar ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga imkon beruvchi zarur shart-sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu borada aksiologik yondashuv asosida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim muhitini shakllantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

#### TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Ta'lim darajasini doimiy ravishda oshirishga kognitiv tayyorlik, shaxsiy potentsialni yangilash va amalga oshirish zarurati, mustaqil ravishda yangi bilim va ko'nikmalarni egallash qobiliyati, o'z-o'zini rivojlantirish istagi, kasbiy mahoratini doimiy ravishda boyitish

Ma'lumki, an'anaviy kognitiv yo'naltirilgan ta'lim asosan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish vazifasini hal qiladi va tinglovchilarni rivojlantirish va tarbiyalash o'quv jarayonining "yon mahsuloti" sifatida qaraladi. Bunday trening mutaxassisni emas, balki mutaxassisni tayyorlashga qaratilgan. Asosiy Kompetentsiyalarning yuqoridagi tavsifi va ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish ushbu ikki tushunchani farqlashga imkon beradi. Mutaxassis-bu ma'lum bir malaka uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va ko'nikmalarga ega bo'lgan xodim. Professional-bu faoliyatning individual uslubi bilan ajralib turadigan, yaxshi ifodalangan kasbiy muhim fazilatlar va vakolatlarga ega bo'lgan ijtimoiy va professional malakali xodim. Zamonaviy ishlab chiqarish va jamiyat mutaxassislarni talab qiladi.

O'qituvchining shaxsiyati tarkibidagi muhim tarkibiy qism kasbiy muhim fazilatlar-samaradorlikka ta'sir qiluvchi faoliyat sub'ektining individual fazilatlarini. Bunday xususiyatlar-bu shaxsning faolligi, qat'iyatlilik, muvozanat, maktab o'quvchilari bilan ishlash istagi, ekstremal vaziyatlarda adashmaslik qobiliyati, joziba, halollik, adolat, zamonaviylik, pedagogik gumanizm, bilim, pedagogik xushmuomalalik, bag'rikenglik, intizom, pedagogik optimizm.

Pedagogik jihatdan muhim fazilatlariga, shuningdek, maqsadga muvofiqlik (belgilangan pedagogik maqsadlarga erishish uchun shaxsiyatning barcha

fazilatlarini yo'naltirish va ulardan foydalanish qobiliyati) va muvozanat (har qanday pedagogik vaziyatlarda o'z harakatlarini boshqarish qobiliyati) kiradi.

Zamonaviy o'qituvchining shaxsiyati asosan uning bilimliligi bilan belgilanadi. Zamonaviy dunyoda erkin harakat qilishni istagan kishi ko'p narsalarni bilishi kerak.

O'qituvchining shaxsiyatining kasbiy ahamiyatli fazilatlari, hayotning intellektual va hissiy-ixtiyoriy tomonlarining xususiyatlari sifatida, kasbiy va pedagogik faoliyat natijalariga sezilarli ta'sir qiladi va o'qituvchining individual uslubini belgilaydi. Lekin hozirgi paytda bo'layotgan zamonaviy texnika va texnologiyalashgan davrda kishi ongiga bo'lgan ta'sir vositalarining kuchayishi yuqoridagi masalani kun tartibiga qo'yimoqda. Har bir ishning samaradorligini va yuqori natijalarini egallash uchun kuchli, o'tkir bilimga, yuqori iqtidorga, zamon talabiga moslashishga, tashkiliy madaniyatga, xulqqa, motivatsiyaga va bilim olish uchun moyillikka ega kadrlar o'ta zarurligini hayot taqozo etmoqda. Har qancha yangi imkoniyatlarga ega bo'lgan texnologiyalardan ko'ra zamonaviy bilimga ega mohir va aql bilan ish tuta biladigan, o'z kasbining yetuk mutaxassislari, mahorat egalari kabi aniq maqsadga to'la erishib bo'lmaydi. Shuning uchun ham inson idroki, aql-zakovatiga, inson kasbiy mahoratini shakllantirishga qaratilgan uzoq muddatli tajriba orttitish, ko'nikma va malakalarni hosil qilish har qanday tashkilotning uzoq muddatli ustivor faoliyatining asosiy omili bo'lib kelmoqda.

Pedagogik faoliyatda kasbiy kompetentlik umumiy tuzilmasining muhim tarkibiy qismlaridan biri - bu ijtimoiy-madaniy kompetentlik hisoblanadi. Zero zamonaviy o'qituvchi nafaqat o'quvchiga bilim beradi, ma'lumot, axborot yetkazadi, balki rivojlanayotgan shaxs va jamiyat o'rtasida vositachi rolini ham bajaradi. "Bola-shaxs-jamiyat" munosabatlari o'zaro aloqasining maqsadga muvofiq bo'lishi o'qituvchining qanchalik ijtimoiy hayotda kompetentli, omilkor ekangigiga ham bog'liqdir.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, kasbga oid bilimlarni o'zlashtirish asosida kreativ pedagogik faoliyatga tayyorlashning pedagogik shart - sharoitlarini aniqlash masalalari rivojlangan xorijiy davlatlar AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Koreya, Rossiya, Irlandiya, Ispaniya kabi davlatlarning yirik davlat dasturlari, Yunesko hamda Umumevropa taraqqiyot dasturi, shuningdek ming yillik rivojlanish dasturlarida yetakchi masala sifatida nazarda tutilgan va keng ko'lamda izlanishlar olib borilmoqda.

Oliy ta'limning sifati didaktik kategoriya sifatida o'quv-tarbiya jarayoni sub'yektlarining faoliyat ko'rsatish sharoitlari o'zgarganligi, o'quv jarayoni va uning natijalari haqidagi tasavvurlarini ifodalab, mazkur tizimning o'ziga xos

xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Bunday yondashuv bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy layoqatlarini ifodalab uning asosini bilimlarni kognitiv o'zlashatirish faoliyati tashkil etadi.

Ijtimoiy-madaniy kompetentlikning asosiy vazifalari sirasiga moslashish, ijtimoiy yo'nalganlik, shaxsiy va umumijtimoiy tajribalarning uyg'unlashuvi kabi jihatlarni kiritish mumkin. Shaxs ijtimoiy-madaniy kompetentligining qay darajada ekanligi o'zaro shaxslararo munosabatlarni olib borish, faoliyatni yo'lga qo'yish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, psixologlar o'tkazgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, shaxsning yangi ijtimoiy, globallashuv shart-sharoitlariga moslashuvi jarayonida insonlardagi ijtimoiy kompetentlik darajasining shakllanganligi alohida o'rin tutadi.

Bugungi kunning eng ilg'or korporatsiyalar o'z personallarini zamonaviy bilimlar asosida o'qitishga qayta tayyorlashga, malakasini oshirishga, mehnatlariga sharoitlar yaratishga va bir butun jamoa bo'lib ishlashiga alohida ahamiyat bermoqdalar.

Bugungi kunda yoshlar o'z mutaxassisliklari asosida ishga kirib kelmoqdalar lekin ularning malaka ko'rsatkichlari, bilimlari, iqtidori mos ravishda yuksalishi uchun uzoq muddatli amaliy jarayonlarni talab etadi.

Malakali mutaxassis: berilgan mehnat turiga ijtimoiy mas'uliyat darajasiga, uning jarayoni va natijalariga qarab kasbga yaroqliligi, psixologik tayyorgarligini aniqlash orqali mehnat faoliyatini amalga oshirishdagi imkoniyat va natijalarini belgilash dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Refleksli – innovatsion potensialni mahorat darajasigacha takomillashtirish va innovatsiyalarni ijtimoiy ahamiyatini baholashni, sarf etilgan intilishlarni hamda uni amalga oshirish yutuqlari asosida belgilash orqali o'rganilmoqda. Reflektiv tomoniga ko'ra: (rivojlanayotgan «Men» sifatidagi shaxsni o'zligini anglash va mehnat faoliyati jarayonida kommunikatsiya bo'yicha hamkorlarini tushuna bilishi bilan bog'liq) tizim yaratuvchi faktor hisoblanib, insonni kasbiylashuvini belgilashda akmeologik aspektlarning optimal o'zaro harakatini ta'minlaydi.

#### TADQIQOT NATIJALARI

Qobiliyat, iqtidorlik bir-biri bilan uzviy ketma-ketlikda rivojlanishida bo'lishini nazarda tutish kerak. Akmeologiyaning tadqiqot obyekti - bu akme shaxs ya'ni yetuk shaxs, obyektiv qonuniyatlarga asoslangan holda kasb faoliyatining va ijodiy faoliyatning metodologik, texnologik hamda gumanitar jihatlarini o'rganish jarayonida jamiyat rivojida kasb-hunar moddiy, ma'naviy jihatlarini bilan bog'liq akmeologik muammolarni aniqlaydi. Bugungi kunda bozor munosabatlarining rivojlanishida yangi kasb-hunarlarini shakllantirish, davr talabiga mos keluvchi

yetuk kadrlar yetishtirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Globalizatsiya jarayonlariga ijodiy kompleks yondoshish, kasbkorlik madaniyati, komillik va mukammallik haqida alloma va mutafakkirlarning qarashlarini tahlil etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga xos jihatlarni va zamonaviy tajribalarni chuqur egallash, texnika, texnologiya va axborot madaniyatini o'zlashtirish masalalari ham akmeologiyaning obyektlaridan biriga aylanishi mumkin.

Inson qobiliyatlari chek chegaraga bilmaydi aslida, ammo bu chegarasiz manba shunchaki paydo bo'lib qoladigan topilma emas, balki bunga uzoq mehnat bilan olish jarayonlari hamda takomillashib boradigan akmeologik qobiliyatlarni ya'ni insonning ma'lum soha yoki yo'nalishlariga fan, san'at, sport, kasb umuman olganda inson faoliyat sohalarining ham jismoniy ham manaviy tomonlarini o'ziga qamrab oladi.

Inson shaxsi o'zining psixologik xarakter temperamenti, olamni anglash hissi, dunyoqarashi va boshqa xususiyatlar asosida insonda kasbga hunarga alohida moyillik hosil bo'ladi bularga: inson inson, inson tabiat, inson badiiy obraz, inson texnika kabilarga bo'linadi. Shu asosida yoshlarimizni tarbiyalashda uning imkoniyatlari, qobiliyati va asosiysi qiziqishlarini inobatga olgan holda bilimlarni egallashiga yo'naltirish lozim. Keyingi yillarda jahonning sinovdan o'tgan tajribalari asosida ta'limni yo'lga qo'yishga alohida e'tibor berilayapti. Jahonning ko'plab ta'lim tizimlarida ijtimoiy muhitga moslashuv va o'zaro harakatlar tizimini o'rtgatishga va professional bilimlarga o'rgatilayapti bu murakkab jarayon inson umrining oxirigacha davom etuvchi yo'l sanaladi. Bu tizimni o'rganadigan fanlar yangi yondashuvlarni, tamoyillar, metod va qarashlar bilan yanada boyib borishni o'rganadigan akmeologiya sohasi aynan kishini komillik darajasiga chiqish yo'llarini izlash ustida bosh qotiradi. Insonni rivojlanish fenomenologiyasini, qonuniyatlarini va mexanizmlarini o'rganuvchi, tabiiy, ijtimoiy, gumanitar va texnikaviy fanlar integrallashuvida paydo bo'lgan akmeologiya fani xuddi shunday fanlar sarasiga kiradi. Sotsiologiya, pedagogika va psixologiya bilan o'zaro harakatda rivojlanib borayotgan akmeologiya fani so'nggi paytlarda o'z e'tiborini kadrlarni malakali mutaxassis tayyorgarligiga va uzluksiz ta'lim tizimiga qaratmoqda.

#### MUHOKAMA

Akmeologik yondashuv yordamida kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini takomillashtirishni turli qirralarini hisobga olgan holda, malakali mutaxassislarning ijodiy qobiliyatlarini ochish va rivojlantirish muammolari oldingi o'ringa chiqib bormoqda. Bu borada ta'lim tizimida o'qituvchi shaxsiga

e'tibor katta. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy moslashishini akmeologik jihatdan tadqiq qilinsa bugungi zamon talabiga mos, biroq avvalgi chuqur bilimlarga ham ega yetuk o'qituvchi shaxsini, o'z ishining mutaxassisi etib yetishtirish jarayoni juda murakkab pedagogik va psixologik jarayon hisoblanadi.

Yosh avlodga ta'lim tarbiya beruvchi yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlash muhim ustivor masala bo'lib qolaveradi. O'qituvchi shaxsi o'z ustida tinimsiz ishlashi hamda izlanishi masalasiga e'tibor bugungi kunda ham juda katta. Akmeologik yondashuvlar asosida o'z faoliyatining akme darajasiga intilish va uni ro'yobga chiqarish ustida yangi usul va har kim o'ziga hos yo'nalishlaridan borishini talab etadi.

O'z-o'zini anglashning individual usuli va varianti g'oyasi (K.A.AbulxanovaSlavskaya, A.A.Derkach va boshqalar). Olingan vaqtinchalik kompetensiyalar va shaxs tomonidan erishilgan vaqtinchalik malaka darajasi ko'p jihatdan bo'lajak o'qituvchilarning individual psixologik xususiyatlari va xususiyatlarining o'ziga xosligi bilan belgilanadi. A.A.Derkachning fikricha akmeologiyada modelga murojaat qilish zarurati bizga psixologik hodisani tasavvur qilish, uning muhim xususiyatlarini, tarkibiy xususiyatlarini, mexanizmlarini, shakllanish darajalarini ochib berishga imkon beradi.

Reflektiv tomoniga ko'ra: (rivojlanayotgan «Men» sifatidagi shaxsni o'zligini anglash va mehnat faoliyati jarayonida kommunikatsiya bo'yicha hamkorlarini tushuna bilishi bilan bog'liq) tizim yaratuvchi faktor hisoblanib, insonni kasbiylashuvini belgilashda akmeologik aspektlarning optimal o'zaro harakatini ta'minlaydi.

Maktab yoshidagi bolaga, yosh avlodga va boshqa tinglovchiga bilim berishda o'z kasbiy mahorati yuksak akmeshaxs bo'la oladigan o'qituvchi o'zining tasirigagi tinglovchini to'la jaalb eta olishi hamda uni bilim olish va hayotiy ko'nikmalarga tayyorlashi tayin. Akmeologik ta'lim texnologiyalarini o'qitish amaliyotida tatbiq etish, ta'lim va ijodni rivojlanishini refleksli-psixologik konsepsiyasi asosida malakali mutaxassislarni tayyorlashda akmeologik yondashuvlarni tuzilmaviy tomonlarini hisobga olib borish lozim.

#### XULOSA

Darhaqiqat, Abdulla Avloniy o'qituvchining shaxsiy va kasbiy fazilatlariga keng ta'rif berib: tarbiyachining shaxsiy fazilatlarini, ya'ni axloqli, odobli, bilimdonligi, ziyrakligi, topqirligi, farosatlilik, aql-zakovatlilik ta'lim- tarbiya jarayoni uchun asosiy negiz bo'lsa, ijodiy izlanish o'qish va o'qitishning yangi shakl, uslub hamda vositalarini qidirish o'qituvchining eng muhim kasbiy

sifatlaridan ekanligini uqtiradi. Bu bilan Abdulla Avloniy o'qituvchi faoliyatiga nisabatan akmeologik yondashuvni o'z davri qiyofasida olg'a suradi.

Bo'lajak o'qituvchilarni akmeologik rivojlanish jarayonini yana bir e'tiborli jihati bu yuqorida ta'kidlab o'tilgan yo'nalishlardagi kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish va amaliyotga to'laqonli tatbiq etishning zaruriy shart-sharoitlari majmuasining belgilanishidir. Chunki, qulay va maqsadga yo'naltirilgan pedagogik sharoit jarayondan ko'zlangan natijaga erishishini engillashtiradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ахмадов, Н. Р. (2021). Суицидальное поведение подростков. Вестник интегративной психологии.(журнал для психологов), 13-15.

2. Ахмадов, Н. Р. (2020). Причины суицидального поведения. Вестник интегративной психологии.(журнал для психологов), 60-62.

3.Makhmudova D. K. Significance of acmeological approach in improving the cognitive competence of the future teachers //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2020. – Т. 2. – №. 4. – С. 426-433.

4.Dilnoza MAHMUDOVA. Акмеологик ёндошув асосида бўлажак ўқитувчиларда когнитив компетентликни ривожлантириш технологиясини тадқиқ этиш масалалари // Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 6/S. – С. 139-144.

5.Mahmudova Dilnoza. Technology for the development of cognitive competence in future teachers based on the acmeological approach // EPRA International Journal of Research Development. Volume 5. Issue 3. March 2020. pp. 464-465.

6.Mahmudova Dilnoza Xaytmirzayevna, Egamov Jasurbek. ACMEOLOGICAL APPROACH TO PREPARATION OF FUTURE TEACHERS. Web of scientist: International Scientific Research Journal, Volume: 3, Issue: №4(2022) in April 2022

7.Mahmudova Dilnoza. Use of the Acmeological Approach to Teaching Mathematics. International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology. e-ISSN: 2792-4025 <http://openaccessjournals.eu> Volume: 2 Issue: 22 in February-2022.